

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamov Amriddin Xamdam o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikramova Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI

Turg'unova Tursunoy Maratovna

Andijon davlat texnika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada erkin iqtisodiy zonalarda eko-sanoat parklarini tashkil etish qoidalari, ularni yo'lga qo'yish bosqichlari hamda ekologik loyihalar samaradorligini baholash yo'llari o'rganilgan. Tadqiqot davomida Navoiy, Jizzax, Urganch, Angren va G'ijduvon erkin iqtisodiy zonalaridagi eko-sanoat parklari o'zaro solishtirib chiqildi. Ularning faoliyatini bir vaqtning o'zida to'rtta muhim yo'nalish — iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va innovatsion mezonlar bo'yicha baholaydigan maxsus model ishlab chiqildi. Maqola xulosalari davlat tashkilotlari, hududiy rahbarlar va eko-parklarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun amaliy qo'llanma bo'la oladi.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zona, eko-sanoat parki, ekologik tadbirkorlik, yashil iqtisodiyot, doiraviy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, baholash metodikasi, resurs samaradorligi.

Аннотация. В статье исследованы правила создания экопромышленных парков в свободных экономических зонах, этапы их внедрения, а также подходы к оценке эффективности экологических проектов. В ходе исследования проведено сравнительное изучение экопромышленных парков, расположенных в свободных экономических зонах Навои, Джизака, Ургенча, Ангrena и Гиждувана. Разработана специальная модель, позволяющая одновременно оценивать их деятельность по четырём ключевым направлениям: экономическим, экологическим, социальным и инновационным критериям. Выводы статьи могут служить практическим руководством для государственных организаций, руководителей регионов и предпринимателей, осуществляющих деятельность в экопарках.

Ключевые слова: свободная экономическая зона, экопромышленный парк, экологическое предпринимательство, зелёная экономика, циркулярная экономика, устойчивое развитие, методика оценки, эффективность использования ресурсов.

Abstract. This article examines the rules for establishing eco-industrial parks in free economic zones, the stages of their implementation, and approaches to evaluating the effectiveness of environmental projects. The study provides a comparative analysis of eco-industrial parks located in the free economic zones of Navoi, Jizzakh, Urgench, Angren, and Gijduvan. A special model was developed to assess their performance simultaneously across four key dimensions: economic, environmental, social, and innovation criteria. The findings of the article can serve as a practical guide for government organizations, regional authorities, and entrepreneurs operating in eco-industrial parks.

Keywords: free economic zone, eco-industrial park, environmental entrepreneurship, green economy, circular economy, sustainable development, evaluation methodology, resource efficiency.

KIRISH

So'nggi o'n yillikda jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish tamoyillari ustuvor bo'lib bormoqda. Bu jarayon hududiy iqtisodiyotda yangi tuzilma — eko-sanoat parklarini vujudga keltirdi. Eko-sanoat parki — bu zavod va fabrikalar bir-biriga haqiqiy hamkor bo'lib ishlaydigan hududdir. Bunday parkda bir korxonadan chiqqan chiqindi boshqasi uchun xomashyo vazifasini o'taydi, suv va energiya qayta ishlatiladi, umumiy infratuzilma esa birgalikda boshqariladi. Bularning barchasi sanoatning tabiatga yetkazadigan zararini imkon qadar kamaytirish uchun qilinadi. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar yildan-yilga ko'payib bormoqda. Ayniqsa, 2020–2024-yillarda Navoiy, Jizzax, Urganch, Angren va G'ijduvondagi maxsus zonalar faollashgani sababli endi ularni oddiy sanoat maydonidan zamonaviy eko-sanoat parklariga aylantirish ehtiyoji tug'ildi. Qolaversa, mamlakatimizning Harakatlar strategiyasi va 2030-yilgacha mo'ljallangan "yashil" iqtisodiyot dasturida ham sanoatni tabiatga zarar yetkazmaydigan toza tizimga o'tkazish bosh maqsad qilib qo'yilgan.

Biroq amaliyotda eko-sanoat parklari faoliyatining samaradorligini baholashda yagona va aniq mezonlar tizimini takomillashtirish zarurati mavjud. Mavjud yondashuvlarda moliyaviy natijalar bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy samaradorlikni kompleks baholashga ham alohida e'tibor qaratish muhimdir. Shu sababli mazkur



yo'nalishda samaradorlikni kompleks baholashning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — erkin iqtisodiy zonalarda eko-sanoat parklarini tashkil etish tartibini tizimga solish hamda ekologik loyihalar faoliyatini har taraflama (iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy) baholaydigan maxsus usul ishlab chiqishdir. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Eko-sanoat parki tushunchasining asl mohiyatini yoritish;
- Xorijiy mamlakatlar va O'zbekiston tajribasini o'zaro solishtirish;
- Ekologik tadbirkorlikni baholash mezonlarini tuzib chiqish;
- O'zbekistondagi eko-sanoat parklari bo'yicha raqamlar va statistikani tahlil qilib, amaliy tavsiyalar berish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eko-sanoat parklari g'oyasi qayerdan kelgan degan savolga avval javob topaylik. Eko-sanoat parklari konsepsiyasi "doiraviy iqtisodiyot" va "sanoat ekologiyasi" nazariyalariga tayanadi. Bu g'oyaga olimlar Frosch va Gallopulos asos solgan bo'lib, uning tub mohiyati oddiy: bir korxonaning chiqindisi boshqasi uchun xomashyoga aylanishi kerak. Bu amaliyot ilk bor Daniyadagi mashhur Kalundborg eko-parkida muvaffaqiyatli qo'llangan.

Xalqaro tajribada Xitoy, Janubiy Koreya, Hindiston va Vetnam kabi rivojlanayotgan davlatlarda eko-parklar yaratish davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi:

Xitoyda 2003-yildan beri resurslarni tejash va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha qat'iy majburiy me'yorlar amal qilib kelmoqda.

Janubiy Koreyada esa asosiy urg'u korxonalar o'rtasida "sanoat hamkorligi" (simbiozi) tarmoqlarini tuzishga qaratilgan.

Ekologik tadbirkorlik — bu shunchaki biznes qilish emas, balki muammolarga innovatsion yechim topishdir. Mutaxassislar uni baholashda uchta narsaga e'tibor berishadi: moliyaviy foyda, ekologik zarar (havo va suvga yetkazilgan zarar) hamda jamiyatga ta'siri. Biroq, hozirgi baholash usullari bu omillarni alohida-alohida o'rganadi, ularni bir butun sifatida qaramaydi. Ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishi bilan ajralib turadi.

O'zbekistondagi holat (tadqiqotdagi bo'shliq): Mahalliy olimlarimiz erkin iqtisodiy zonalarining soliq va bojxona imtiyozlari hamda investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini ko'p o'rganishgan. Lekin bu zonalarining atrof-muhitga ta'siri va ekologik barqarorligini baholash masalasi hanuzgacha yetarlicha tadqiq qilinmagan ochiq bo'shliq bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda umumilmiy va maxsus tadqiqot usullaridan foydalanildi: tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, ekspert baholash va ko'p mezonli qaror qabul qilish usuli. Ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Statistika agentligi hamda mintaqaviy erkin iqtisodiy zonalar boshqaruv kompaniyalarining 2019–2024-yillar davomidagi rasmiy hisobotlari va ochiq statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Ekologik tadbirkorlikni baholash uchun taklif etilayotgan integral indeks quyidagi umumlashgan formula asosida hisoblanadi:

$$I = \sum (w_i \times x_i), \text{ bunda } i = 1, 2, \dots, n$$

bu yerda: I — eko-sanoat parkining integral baholash indeksi; w_i — i -mezonning og'irlik koeffitsiyenti (ekspert baholash usuli — Delfi metodi orqali aniqlangan); x_i — i -mezon bo'yicha normallashtirilgan ko'rsatkich (0 dan 1 gacha oraliqda). Og'irlik koeffitsiyentlarining yig'indisi 1 ga teng bo'lishi shart ($\sum w_i = 1$).

Mezonlar besh yo'nalish bo'yicha guruhlangan bo'lib, ularning tarkibi va nisbiy og'irligi 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.
Eko-sanoat parklari faoliyatini baholashning ko'p mezonli tizimi

No	Baholash yo'nalishi	Asosiy ko'rsatkichlar	Og'irlik koeffitsiyenti
1	Iqtisodiy samaradorlik	Investitsiya qaytimi, eksport hajmi, qo'shilgan qiymat	0,25
2	Ekologik samaradorlik	Chiqindi kamayishi, CO ₂ emissiyasi, suv-energiya sarfi	0,30
3	Ijtimoiy samaradorlik	Ish o'rinlari, mehnat sharoiti, mahalliy aholi manfaati	0,20
4	Innovatsion salohiyat	Resurs aylanmasi texnologiyalari, R&D xarajatlari ulushi	0,15
5	Institutsional muhit	Huquqiy baza, monitoring tizimi, hisobotlilik darajasi	0,10


Manba: muallif tomonidan xorijiy tajriba va ekspert so'rovi asosida ishlab chiqilgan.



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, taklif etilayotgan metodikada ekologik samaradorlik mezonini eng yuqori og'irlik koeffitsiyentiga (0,30) ega bo'lib, bu eko-sanoat parkining asosiy maqsadi — atrof-muhitga tushadigan yukni kamaytirish ekanligini aks ettiradi. Iqtisodiy samaradorlik (0,25) va ijtimoiy samaradorlik (0,20) mezonlari barqaror rivojlanishning uch tarkibiy qismini muvozanatlashtiradi, innovatsion salohiyat (0,15) va institutsional muhit (0,10) esa uzoq muddatli rivojlanish omillarini hisobga oladi. Og'irlik koeffitsiyentlari 12 nafar soha mutaxassisi ishtirokida o'tkazilgan Delfi so'rovi natijalari asosida aniqlangan bo'lib, ekspertlar baholarining muvofiqlik koeffitsiyenti (Kendall W) 0,78 ni tashkil etdi, bu esa yuqori darajadagi kelishuvni bildiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasidagi erkin iqtisodiy zonalarda joylashgan eko-sanoat parklarining 2024-yil yakuniga ko'ra asosiy faoliyat ko'rsatkichlari diagrammada tasvirlangan (1-rasm).



1-rasm. Erkin iqtisodiy zonalaridagi eko-sanoat parklarining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari (2024 y.)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, Navoiy erkin iqtisodiy zonasidagi eko-sanoat parki eng yuqori investitsiya hajmi (186 mln. AQSh dollari) va chiqindilar hajmining eng katta darajada kamayishi (34%) bilan yetakchilik qilmoqda. Bu holat Navoiy EIZning metallurgiya va kimyo sanoati klasteriga ixtisoslashganligi, shuningdek, 2008-yildan buyon uzoq muddatli faoliyat yuritayotganligi bilan izohlanadi — vaqt omili sanoat simbiozi aloqalarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Jizzax EIZ (142 mln. dollar, 27%) ikkinchi o'rinni egallasa, so'nggi tashkil etilgan G'ijduvon EIZ (76 mln. dollar, 16%) hali dastlabki rivojlanish bosqichida ekanligini ko'rsatadi. Investitsiya hajmi bilan chiqindilar kamayishi o'rtasidagi bog'liqlik koeffitsiyenti (Pirson korrelyatsiyasi) 0,97 ni tashkil etib, bu ikki ko'rsatkich o'rtasida statistik jihatdan yuqori darajadagi ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi — ya'ni investitsiyalarning ko'payishi bevosita resurs samaradorligi texnologiyalarini joriy etish imkoniyatini kengaytiradi.

Tanlangan beshta eko-sanoat parkining qiyosiy statistik ko'rsatkichlari 2-jadvalda umumlashtirilgan (2-jadval).

2-jadval
O'zbekiston EIZ dagi eko-sanoat parklarining qiyosiy ko'rsatkichlari

Eko-sanoat parki	Tashkil etilgan yil	Rezident korxonalar soni	Chiqindi almashinuvi, %	Yashil sertifikatlashuv ulushi, %
Navoiy EIZ	2019	47	38	41
Jizzax EIZ	2020	34	29	33
Urganch EIZ	2021	21	22	27
Angren EIZ	2021	29	26	30
G'ijduvon EIZ	2022	17	18	22

Manba: hududiy erkin iqtisodiy zonalar yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, eko-sanoat parkining "yoshi" bilan chiqindi almashinuvi darajasi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud: 2019-yilda Navoiy EIZda tashkil etilgan eko-sanoat parkida chiqindi almashinuvi 38 foizni tashkil etsa, 2022-yilda tashkil etilgan G'ijduvon EIZda bu ko'rsatkich atigi 18 foizga teng. Bu holat sanoat simbiozi tarmoqlarining shakllanishi uzoq muddatli jarayon ekanligini, o'rtacha 4–5 yillik davrni talab qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yashil sertifikatlashuv ulushi (ISO 14001, LEED va milliy "yashil" sertifikatlar) barcha zonalarda chiqindi almashinuvi ko'rsatkichidan yuqori bo'lib, bu korxonalarning rasmiy sertifikatlashtirishga real sanoat simbiozi aloqalarini yo'lga qo'yishga qaraganda tezroq erishayotganini ko'rsatadi. Ba'zi hollarda esa "yashil" imidj bilan real ekologik samaradorlik o'rtasida tafovut mavjudligini anglatadi.

Ekologik tadbirkorlik subyektlari sonining va ularga yo'naltirilgan investitsiyalarning 2019–2024-yillardagi dinamikasi diagrammada aks ettirilgan (2-rasm).



**2-rasm. Ekologik tadbirkorlik subyektlari sonining va ularga
yo'naltirilgan investitsiyalarning 2019–2024-yillardagi dinamikasi**

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

2-diagramma ko'rsatkichlari tahlili shuni tasdiqlaydiki, tahlil qilinayotgan davrda ekologik tadbirkorlik subyektlari soni 214 tadan 571 taga, ya'ni 2,67 baravar oshgan, o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa 21,7 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, 2021–2022-yillarda keskin o'sish (335 tadan 402 taga) kuzatilib, bu davr "2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qabul qilingan davrga to'g'ri kelishi tasodifiy emas — me'yoriy-huquqiy baza va davlat qo'llab-quvvatlash choralari tadbirkorlik faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Ekologik loyihalarga yo'naltirilgan investitsiyalar esa yanada tezroq sur'atda — 58 mln. dollardan 219 mln. dollargacha oshgan, ya'ni 3,78 baravar o'sgan, bu esa o'rtacha bitta subyektga to'g'ri keladigan investitsiya hajmining ham oshib borayotganini (2019-yilda 0,27 mln. dollardan 2024-yilda 0,38 mln. dollargacha) ko'rsatadi. Bu tendensiya ekologik tadbirkorlik subyektlarining nafaqat sonining, balki sifat jihatidan — texnologik jihozlanganlik va loyihalar murakkabligi bo'yicha ham rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalarini umumlashtirib, taklif etilgan integral indeks (I) formulasi asosida beshta eko-sanoat parki uchun hisob-kitob o'tkazildi. Hisob-kitoblarni natijasida Navoiy EIZ eng yuqori integral ko'rsatkichga ($I = 0,81$) erishgani, undan keyin Jizzax EIZ ($I = 0,68$), Angren EIZ ($I = 0,61$), Urganch EIZ ($I = 0,54$) va G'ijduvon EIZ ($I = 0,46$) joylashgani aniqlandi. Olingan natijalar amaldagi statistik ko'rsatkichlar bilan yuqori darajada mos kelishi (rang correlation 0,93) taklif etilgan metodikaning ishonchlilikini tasdiqladi.

O'tkazilgan tahlil eko-sanoat parklarini yo'lga qo'yishda uchta muhim jihatga e'tibor berish kerakligini ko'rsatadi:

1. Shoshmaslik va bosqichma-bosqich reja qilish kerak. Zavodlar o'rtasida chiqindi va resurs almashish tizimi bir kunda paydo bo'lib qolmaydi. Shuning uchun yangi parklarda dastlabki 3–4 yilda asosiy e'tiborni



infratuzilmaga hamda har bir korxonaning alohida ekologik texnologiyasiga qaratish lozim. Korxonalar bir-biri bilan resurs almashishini esa keyingi bosqichda yo'lga qo'ygan ma'qul.

2. "Yashil" loyihalarga pul tikishni rag'batlantirish zarur. Kiritilgan investitsiya va ekologik foyda bir-biriga uzviy bog'liq. Shuning uchun davlat ekologik texnologiyalarga pul tikayotgan tadbirkorlarni faol qo'llab-quvvatlashi, ya'ni arzon kreditlar berishi, soliqdan chegirmalar qilishi va "yashil" obligatsiyalardan foydalanishi kerak.

3. Qog'ozdagi sertifikat bilan amaldagi holat bir xil bo'lishi lozim. Ba'zida "yashil sertifikat"ga ega korxonaning real ekologik ko'rsatkichlari mos kelmasligi mumkin. Buning oldini olish uchun nazoratni kuchaytirish va mustaqil ekologik audit tizimini rivojlantirish shart. Taklif qilinayotgan baholash indeksi aynan shunday nomuvofiqliklarni vaqtida aniqlab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirish mumkin:

Eko-parklar – bu faqat tabiatni asrash emas, balki katta daromad manbayidir. Erkin iqtisodiy zonalarda eko-sanoat parklarini tashkil etish nafaqat tabiatga, balki biznesga ham juda katta foyda keltirishini ko'rdik. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, yashil texnologiyalarga kiritilgan investitsiya bilan resurslarni tejash o'rtasida juda uzviy bog'liqlik ($r = 0,97$) mavjud. Ya'ni, pul qanchalik to'g'ri yo'naltirilsa, resurslar shunchalik ko'p tejiladi.

Har taraflama xolis baholash tizimi ishlab chiqildi. Taklif qilingan beshta mezonli: iqtisod, ekologiya, jamiyat, innovatsiya va boshqaruvni baholash usuli eko-parklar faoliyatiga to'liq baho berishga yordam beradi. Eng muhimi, ushbu tizim orqali davlat qaysi korxonaga qanchalik ko'p soliq imtiyozi yoki yordam berishi kerakligini to'g'ri aniqlash mumkin.

"Yashil" biznes rivojlanib kelyapti, ammo unga qonuniy kafolat kerak. 2019–2024-yillar oralig'ida ekologik tadbirkorlar soni 2,7 baravarga, ularga tikilgan investitsiyalar esa 3,8 baravarga oshdi. Bu iqtisodiyotimiz rostdan ham "yashil" yo'lga o'tayotganini ko'rsatadi. Lekin bu o'sish vaqtincha bo'lib qolmasligi uchun tadbirkorlarga uzoq muddatli va mustahkam qonuniy kafolatlar zarur. Amaliyot uchun 3 ta aniq taklif beriladi:

- Bitta joydan nazorat: Erkin iqtisodiy zonalar rahbarligi qoshida yagona ekologik monitoring markazini tuzish;

- Raqamli platforma: Korxonalar bir-birining chiqindisini xomashyo sifatida ko'rib, o'zaro almashishi uchun maxsus onlayn platforma (sanoat hamkorligi sayti) yaratish;

- Ochiq reyting: taklif qilingan baholash indeksi bo'yicha har yili eko-parklarning ochiq reytingini e'lon qilib borish.

Kelajakda ushbu baholash metodikasini yanada boyitish uchun unga eko-sanoat parklarining iqlim o'zgarishlariga va noqulay ob-havo sharoitlariga qanchalik moslasha olish yetukligini (klimat-barqarorligini) o'lchaydigan yangi mezonlarni ham qo'shish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-436-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-6303230>
2. Frosch R.A., Gallopoulos N.E. Strategies for Manufacturing // Scientific American. – 1989. – Vol. 261, № 3. – P. 144–152.
3. Chertow M.R. Industrial Symbiosis: Literature and Taxonomy // Annual Review of Energy and the Environment. – 2000. – Vol. 25. – P. 313–337.
4. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. "Yashil" iqtisodiyot ko'rsatkichlari to'plami. – Toshkent, 2024.
6. Geng Y., Fu J., Sarkis J., Xue B. Towards a national circular economy indicator system in China: an evaluation and critical analysis // Journal of Cleaner Production. – 2012. – Vol. 23. – P. 216–224.
7. Karimov N.T. Erkin iqtisodiy zonalarining innovatsion rivojlanishi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 214 b.
8. Cohen B., Winn M.I. Market imperfections, opportunity and sustainable entrepreneurship // Journal of Business Venturing. – 2007. – Vol. 22, № 1. – P. 29–49.
9. Xitoy Milliy Rivojlanish va Islohotlar Komissiyasi (NDRC). Eco-Industrial Park Development Program: 20-year Review. – Beijing, 2023.
10. Mirziyoyev Sh.M. Barqaror rivojlanish va "yashil" iqtisodiyot – milliy taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 96 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>